



“1 MILLION DASTURCHI” LOYIHASI. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTGA OTISH YO‘LIDAGI DADIL QADAMLAR VA XORIJ TAJRIBASI

Sattorov Rasul Ural o‘gli

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya Harbiy texnik
instituti

rasulsattorov482@gmail.com

+998930708745

Annonsiya:

Ushbu maqolada muhtaram yurtboshimiz tomondan ilgari surilgan va keng jamoatchilik katta qiziqish bilan kutib olgan mamlakatimizda “ 1 million dasturchi” loyihasi, shuningdek O‘zbekistonni raqamlashtirish va ushbu sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayoni haqida ma‘lumotlar va xorij tajribasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar:

Raqamli iqtisodiyot, 1 million dasturchi, Dubai Future Foundation, axborot texnologiyalari, xufyona iqtisodiyot, iqtisodiy mo‘jiza.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

“Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, qurolli kuchlar oiliy bosh qo‘mondoni.”

21- asr “axborot texnologiyalari” asri kabi jummalarni siz matbuotda, televediyana, yohud qo‘l telefonigiz orqali yangiliklarni ko‘rayotganingizda bir necha bor duch kelganingiz aniq. Bu so‘z nimani anglatishini aqli raso, dunyo qarashi keng har bir inson judayam yaxshi tushunadi. Butun dunyo bo‘ylab axborotga ishlob berish vositalarini ishlab chiqarish uchun yiliga milliardlab AQSH dollari miqdoridagi mablag‘ sarflanadi. Chunki zamon qanchalik tez taraqqiy etar ekan axborotga, unga egalik qilishga, unga ishlov beradigan vositalarga bo‘lgan qiziqish butun insoniyatni ongu shuurini o‘z domiga tortib ulgurgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har qanday sohada u iqtisodiyot bo‘ladimi tibbiyot bo‘ladimi ishlab chiqarish bo‘ladimi, turizmi, farqi yo‘q ularning hammasiga eng zamonaviy axborot texnologiyalarini jalb etish yaxshi natijaga erishishning asosidir. Masalan raqamli texnologiyalar iqtisodiy yuksalishning muhim omilidir u raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga keng yo‘l ochadi. Raqamli iqtisodiyot esa bu yuqori darajada kompyuter texnologiyalari yordamida iqtisodiy o‘shish samaradorligi bir necha barobar oshirish demakdir.

Raqamli iqtisodiyot

Bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

McKinseyning so'zlariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotini raqamlashtirishning potentsial iqtisodiy samarasi yalpi ichki mahsulotni 2025 yilga qadar 4-8,9 trln. rublga oshiradi.

Bundan tashqari 2025 yilga kelib dunyoda raqamli iqtisodiyotning ulushi 23 trln. AQSh dollariga yetadi. Uning jahon YaIMdagi ulushi hozirgi 17,1 foizdan 24,3 foizga o'sadi, bulutli texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalar soni 58 %ga, sun'iy intellekt – 86 %, raqamli katta hajmdagi ma'lumotlar – 80 %ga oshadi. Tarmoq standartlari: 5G standartidagi uyali tarmoqlarning ma'lumot almashish tezligi 20 Gbit/s ga yetadi, bu 4G standart tarmoqlaridan 4 barobarga yuqori ko'rsatkichga ega.¹

Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'zni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi.

Prezidentimizning 2020 yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, joriy yilning ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilingani bejiz emas.

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o'ta muhim va dolzarb vazifalar qo'yilgan.

Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. U "xufiyona iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi.

Bunday sharoitda biror ma'lumotni bekitish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji qolmaydi, buning natijasida esa iqtisodiyotga yo'naltirilgan qonuniy mablag'lar joy-joyiga sarflanadi. Ayniqsa, soliqlarning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, byudjet taqsimoti oshkoraligi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar, maktablar, shifoxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq o'z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo'l, deya atash g'oyat oqilona va odilona ta'rif bo'ladi².

Ma'lumki, O'zbekiston aholisining 60 foizi yoshlar bo'lib, ularni zamonaviy axborot texnologiyalariga keng jalb qilish, ularga dasturiy mahsulot yaratish va outsourcing xizmatlarini ko'rsatishga ko'maklashish orqali ish bilan ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi oliy majlisga murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tub burilish qilish hamda sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida xorijiy

¹TDIU Yangiliklar "O'zbekistonda 1 million dasturchi tayyorlashning yangi yo'nalishlari" 2020 yil 25 fevral.

²"Yangi O'zbekiston" gazetasi 2020 yil 15-iyul kungi 130-sonidan.

hamkorlar bilan birgalikda “1 million dasturchi” lohiyasini oshirish kabi muhim vazilarni belgilab bergan edi.

Ushbu uzoqni mo'ljallab, yuqori natijalarga erishishda o'ziga xos katta qadam bo'lgan mamlakat tarixidagi eng katta loyihalardan biri bo'lgan “1 million dasturchi” lohisani amaliyotda ijrosi bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.

Ushbu loyiha haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak «Bir million o'zbek dasturchisi» (One Million Uzbek Coders) loyihasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, «Dubay Future Foundation» jamg'armasi, Toshkent shahridagi Inha universiteti, AT-akademiyasi va Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi AT-maktabi hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Loyiha ixtisoslashtirilgan onlayn portal orqali aholiga bepul masofaviy ta'lim olish imkoniyatini beradi. Barcha xohlovchilar loyiha ishga tushirilishi bilanoq ishtirok etish uchun ariza topshirishi mumkin. Dasturning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar avlodini tayyorlash va dasturlash bo'yicha ularga kerakli bilim va ko'nikmalarni berishdir.

Aytish lozimki, birinchi marotaba dasturchilarni masofaviy o'qitish loyihasi Birlashgan Arab Amirliklarida «One Million Arab Coders» nomi bilan start olgan. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil mart oyida BAAGA rasmiy tashrifi doirasida bir qator sohalarda, shu jumladan, axborot texnologiyalari sohasida ham hamkorlik kelishuviga erishilgan edi.³

Agar biz mamlakatimizda yuqori iqtisodiy o'sishga erishmoqchi ekanmiz eng avvalo kompyuter texnologiyalari sohasini rivojlantirishimiz bu uchun esa zamon bilan hamnafas kuchli bilim va ko'nikmalarni egallagan dasturchilarni tayyorlashimiz kerakligi tushunib yetdik. “1 million dasturchi” loyihasi mamlakatni raqamlashtirishda yetarli kuch va vositalar bilan ta'minlay olish demakdir.

Shu o'rinda mamlakat taraqqiyotiga erishish yo'lida sharqona ana'nalar egasi, mamlakatimiz uchun eng maqbul va samarali strategiyani belgilab olishda o'rnak va namuna bo'la oladigan bir nechta xorijiy davlatlar taraqqiyot yo'li tajribasi haqida to'xtalib o'tsak. Bu borada eng avvalo Singapur davlati tajribasi tilga oladigan bo'lsak, Singapur “Iqtisodiy mo'jizasi” muallifi Li Kuan Yudan “Qanday kilib mittigina davlatda mo'jiza yarata oldingiz?” deb so'raganida, u shunday javob bergan ekan: *“Davlat byudjetini ta'limga yo'naltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi eng katta mo'jizalarni qilgan insonlar – bu muallimlardir. Ular ilm, ahloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtar avlodni yetishtirib berdilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz”*.

- Ushbu mamlakat tajribasini O'zbekistonda amalga oshirish islohotlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- maktablarda matematikaga qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilarni ajratib olish (1-4 sinflar);
- qobiliyatni rivojlantirish modelini joriy etish;
- turli xil tanlovlarni o'tkazib qobiliyati bor o'quvchilarni rag'batlantirish (masalan, sportchilarga o'xshab);
- dasturchi tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida grant asosida o'qishga qabul qilishni ko'paytirish;
- barcha dasturchilarni dunyodagi yangi dasturlarni o'zida mujassam etgan kompyuterlar (Noutbuklar) bilan ta'minlash;
- Prezident maktablarini dasturchilar tayyorlashga yo'naltirish;

³ “Kun.uz” telegram yangiliklar kanali 2019 yil 21-noyabr

- Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Toshkent shahridagi INHA universitetlarining filiallari va fakultetlarini viloyatlarda ko'paytirish va mazkur oliy ta'lim muassasalarida grant bo'yicha qabul kvotalarini shuningdek, professor-o'qituvchilarning ish xaqini va talabalarning stipendiyalarini keskin oshirish va boshqa shu kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birgalikda Xitoy va Hindiston tajribasi bo'lgan **“Zamonaviy dasturlash ochiq universitetlari”**ni tashkil etib, 6 oylik va 1 yillik qisqa kurslarda masofadan dasturchilar tayyorlash ham mamlakatimiz uchun eng samarali ta'lim tizimlaridan biri bo'lib, bunda dasturchilarni uchta kategoriyaga bo'lib tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- 1) ilmiy izlanuvchi va yangi dastur yaratuvchilar;
- 2) barcha tarmoq va sohalarda mavjud bo'lgan raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini va internet tizimlarning ishini yurituvchilar;
- 3) iste'molchilarni raqamli savodxonligini oshiruvchilar.

ta'limda xarajatlarni “faol” va “passiv”ga bo'lish. Bugungi kunda ta'limga berilayotgan xarajatlarning 50-60%i qurilish ishlariga berilmoqda (Al-Xorazmiy, Beruniylar davrida bugungidek hashamatli o'quv binolari va sport majmualari bo'lmagan).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ta'lim, fan va madaniyat taraqqiyotiga bugundan yuksak masuliyat bilan yondashsak, yoshlarimizga eng zamonaviy bilimlarni bera ololsak ertaga buyuk kelajak haqida gapirishimiz mumkin bo'ladi. Zero dono xalqimiz **“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”** deb bejiz aytmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. TDIU Yangiliklar “O'zbekistonda 1 milion dasturchi tayyorlashning yangi yo'nalishlari” 2020 yil 25 fevral.
2. “Yangi O'zbekiston” gazetasining 2020 yil 15-iyul kungi 130-sonidan.
3. “Kun.uz” telegram yangiliklar kanali 2019 yil 21-noyabr